
Xurshida MUHAMMADIYEVA, Jahongir ALLAMBERGANOV
O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

INVESTITION LOYIHALAR IJROSI SAMARADORLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI

Maqolada investitsion loyihalar ijrosi samaradorligini ta'minlash yo'llari, loyihalarni amalga oshirish bosqichlari va investitsion loyihalarni amalga oshirishning muhim masalalari tadqiq etilgan.

Tayanch so'zlar. Loyiha, investitsiya, sof joriy qiymat, samaradorlik, daromad, foyda, moliyaviy nazorat.

WAYS TO ENSURE THE EFFECTIVENESS OF THE IMPLEMENTATION OF INVESTMENT PROJECTS

The article explores ways to ensure the effectiveness of the implementation of investment projects, stages of project implementation and important issues of the implementation of investment projects..

Key words. Project, investment, net current value, efficiency, income, profit, financial control,

Kirish

Loyihalar samaradorligini ta'minlash bugungi kunda hal etilishi zarur bo'lgan eng assosiy masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Chunki, loyiha uchun mablag' topish masalasidan ko'ra ushbu loyiha samaradorligini ta'minlash nisbatan mashaqatli ish bo'lib hisoblanadi. Agrada, oldindan loyiha samaradorlikka erishishi bashorat qilinsa va ilmiy asoslab berilsa, bunday loyihalarning investitsion jozibadorligi oshadi va pul kiritish buyicha investorlar faolligi ortadi. Barcha investorlarning maqsadi ham o'z sarmoyasini loyihalarga kiritish orqali ortirib borishdan iborat. Shunday ekan ular, qaysi yoki qayerdagi loyihalar emas, balkim samaradorligi mavjud loyihalarga qiziqishi yuqori bo'ladi. Shu sababli ham loyihalar samaradorligiga katta e'tibor qaratiladi. Investitsion loyihalar samaradorligini, albatta uning ijrosini qanday amalga oshirilayotganligiga bevosita bog'liqdir. Investitsion loyihalar ijrosini samarali tashkil etilishi, pirovard natijada loyiha ishtirokchilarining iqtisodiy farovonligini ta'minlaydi. Shu boisdan kelib chiqqan holda qiyida investitsion loyihalar ijrosi samaradorligini ta'minlash yuzasidan ayrim ilmiy mulohazalarimizni keltirib o'tamiz.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

G.M.Masharipova tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida investitsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash yo'llari e'tibor qaratilgan, xususan, investitsion loyihalarni baholash bo'yicha UNIDO uslubi va ushbu tashkilot

tomonidan taqdim etilgan tavsiyalarning o'ziga xos xususiyatlari, investitsion loyihalarni baholashning maqsadlari, investitsion loyihalarni tahlil qilishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan asosiy jihatlariga e'tibor qaratilgan [1].

Axmedova Y.S. tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda investitsiya loyihalari samaradorligining baholash mezonlari va uning o'ziga xos xususiyatlarining ayrim jihatlari ilmiy jihatdan ochib berilgan. Bunda investitsion loyihalar samaradorlik ko'rsatkichlari, investorlarni qoniqtira oladigan daromadlilik ko'rsatkichlari, investitsion loyihalar ijrosi nazoratida inflyatsiya ta'sir doiralari, nominal va real foiz stavkalari va ularning o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor qaratilgan [2].

Qurbonov J.J. tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida investitsion loyihalar ijrosini ta'minlashda investitsion jozibadorlikni oshirish yo'llariga, xususan, loyihalar ijrosini ta'minlashda soliqlarni rejalashtirishga e'tibor qaratishlik investitsion jozibadorlikka zamin yaratish xususida o'z ilmiy qarashlarini bayon etgan [3].

Shu kunga qadar investitsion loyihalar samaradorligiga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar qator olib borilgan bo'lsada, ammo investitsion loyihalar ijrosi samaradorligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar yetarlicha tadqiq etilmaganligiga guvoh bo'ldik. Shu sabablimazkur tadqiqotlarimiz davomida investitsion loyihalar ijrosi samaradorligiga ma'lum bir jihatdan yondashgan holda ilmiy munosabatlarimizni keltirib o'tamiz.


Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqolada taqqoslash, tanlanma kuzatuv, ilmiy abstraksiyalash, qiyoslash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya kabi tadqiqot metodlaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Loyihalar ijrosining samarali tashkil etilishi qator imkoniyatlarni yaratib beradi. Ya'ni, buning natijasida loyiha doirasida ortiqcha xarajatlarning barham topishi, loyiha biyicha xavf-xatarlarning minimallashtirishi, loyihaning investitsion jozibadorligining ortishi, loyiha biznes qiymatining maksimallashtirishi va pirovard natijada loyiha ishtirokchilarining iqtisodiy farovonlikka erishishi ta'minlanadi. Shu sababdan ham barcha turdagi, xususan investitsion loyihalarning ijrosini nazorat qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Loyihalarni nazorat qilishni 5 ta bosqich davomida amalga oshirish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz (1-rasm). Ya'ni, loyihani boshlashdan oldingi bosqich, loyihani boshlash bosqich, loyiha rejasini qayta ko'rib chiqish bosqichi, loyiha bo'yicha ishlarni amalga oshirish bosqichi va loyihani yakunlash bosqishi



1-rasm. Loyihani amalga oshirish bosqichlari*.

*Manba: Mualliflar tomonidan tayyorlandi.

Loyihani boshlashdan oldingi bosqich muhim bosqich bo'lib, bunda loyihani qabul qilish mumkin yoki yo'qligi moliyaviy tomondan tahlil qilinadi. Bunda moliyaviy munosabatlarning bozor samaradorligi konsepsiyasiga tayanilgan holda, samarali loyiha aniqlashtiriladi. Investitsion loyihalar samaradorligini baholovchi moliyaviy ko'rsatkichlar – sof joriy qiymat (NPV), loyiha ichki foydalilik me'yori (IRR), loyihaning qoplanish davri (PP), diskontlangan qoplanish davri (DPP) – orqali loyihalarning samaradorligi aniqlanadi va ular orasidan eng samaralisi tanlab olinadi. Umuman olganda, ushbu bosqichda loyiha samaradorligi darajasi investorning strategik maqsadlariga to'g'ri kelishi baholanadi. Bu ishlarni amalga oshirmasdan turib keying bosqichlarni amalga oshirish juda katta moliyaviy xavf-xatarlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Loyihani boshlash bosqichi loyiha investor uchun moliyaviy jihatdan ma'qul bo'lgandan so'ng amalga oshirish boshlanadi. Ya'ni bu bosqichda, loyihani moliyalashtirish uchun investorning imkoniyatlari baholanadi. Loyiha tender asosida berilayotgan bo'lishi mumkin yoki to'g'ridan to'g'ri berilayotgan bo'lsa ham, investor imkoniyatlarini o'rganish maqsadga muvofiq. Chunki loyiha yuqori samaradorlikni taqdim etishini prognoz qilganda ham, agarda investor vaqtida kerakli miqdordagi mablag'ni investitsiya qilmasa loyida kutilayotgan foydalilik o'z aksini topmaydi. Shu sababli, investor moliyaviy imkoniyatlariga umumiy baho

beriladi. Bunda investor tomonidan loyihani amalga oshirish pasporti, loyihaga qaysi manbalardan pul mablag'larini jalb qilish masalalari aniqlashtiriladi va ustavni ishlab chiqish orqali umumiy rejalar tasdiqlanadi. Shuningdek, loyihalar tender asosida qabul qilinishi holatlarda tender komissiyasiga hujjatlar taqdim etiladi.

Loyiha rejasini qayta ko'rib chiqish bosqichida loyiha to'g'ridan-to'g'ri qabul qilinganda yoki tender savdolari orqali g'olib sifatida qabul qilinganda amalga oshiriladi. Aks holatda, ushbu bosqichda loyiha ishi tugatiladi yoki boshqa loyilarni qabul qilish uchun birinchi bosqichga qaytiladi. Loyiha ishi ijobiy qabul qilinganda, dastlabki xomaki ishlangan rejalar qaytadan ko'rib chiqiladi va uni haqiqatda belgilangan sharoitlar va usullarda amalga oshirish imkoniyatlariga ob'yektiv baho beriladi. Loyiha davrida amalga oshiriladigan ishlar rejasini amalga oshirish imkoniyatlari baholanadi. Shundan kelib chiqqan holda reja tuzatishlar kiritilishi mumkin. Ayrim holatlarda loyiha ishlarini yanada samarali amalga oshirish maqsadida rejalar qaydadan ko'rib chiqilishi va eng qulay moliyalashtirish usullarini tanlash mumkin. Chunki mazkur bosqichdan avvalgi bosqichda, tender savdolarida go'lib bo'lish oldindan ma'lum bo'lmaganligi uchun, loyihani amalga oshirish rejalarini sir saqlash maqsadida ham to'liq berilmaydi. Loyiha aniq qabul qilingandan so'ng haqiqiy rejalar ochiqqlanishi mumkin.

Loyiha bo'yicha ishlarni amalga oshirish bosqichida avvalgi bosqichda ishlab chiqilgan aniq rejalar asosida moliyalashtirish ishlariga start beriladi. Belgilangan rejalar asosida ishlar amalga oshirilayotganligi ustidan moliyaviy nazorat amalga oshiriladi. Moliyaviy nazorat asosida aniqlangan kamchiliklarni to'g'rilash maqsadida rejalariga bu bosqichda ham kerakli tuzatishlar kiritilishi mumkin. Bu bosqich avvalgi bosqichlarga nisbatan ancha muhim va qiziqarli bosqich bo'lib hisoblanadi. O'z vaqtida amalga oshirilgan samarali moliyaviy nazorat hamda rejalarining bajarilishi loyiha samaradorligini ta'minlaydi. Loyiha uchun kerakli bo'lgan pul mablag'lar tegishli manbalardan o'z vaqtida jalb etilishi nazorat qilinadi. Loyiha davomida olinadigan daromadlarning qayta taqsimlanishiga hamda reinvestitsiya qilinishiga va zarurat bo'lganda foyda sifatida qabul qilinishi nazorat qilinadi.

Loyihani yakunlash bosqichida loyihani yakunlash ishlari amalga oshiriladi. Loyihani yakunlash reja asosida amalga oshirilayotganligi nazorat qilinadi. Chunki, loyihani samarali amalga oshirish loyihani taqdim etgan hamkorlar uchun ham loyihani amalga oshirgan tomon uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Hamkorarning loyiha yakunidan manfaatdor bo'lishlari, kelgusida keying yangi loyihalarni birgalikda amalga oshirish uchun qulay imkoniyatni taqdim etadi. Chunki hamma hamkorlikni o'zi ishongan va tajribaga egalar bilan amalga oshirishni xoxlaydi. Shu sababli ham loyihani samarali yakunlash faqatgina moliyaviy jihatdan emas, balki kelgusidagi o'zaro hamkorliklar uchun zamin yaratish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayrim loyihalar investor uchun

zararli bo'lsa ham, kelgusidagi yirik loyihalarni qabul qilish uchun ham amalga oshiriladi. Bunda joriy davrda ko'riladigan zararlar kelgusida erishiladigan foyda hisobidan qabul qilinadi.

Umuman olganda loyihalarni yuqorida belgilangan bosqichlarda amalga oshirish hamda moliyaviy rejalashtirishga katta e'tibor qaratish loyihalar ijrosi samaradorligini ta'minlaydi.

Xulosa

Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda quyida ayrim xulosalarimizni keltirib o'tamiz:

- loyihalar bo'yicha aniq rejalar ishlab chiqish va uni amalga oshirish imkoniyatini oshirish tender savdolarida loyihani muvaffaqiyatli qabul qilish imkoniyatini yaratadi;
- loyihalarni amalga oshirish bo'yicha oldindan aniq rejalar ishlab chiqish hamda loyihani amalga oshirishda moliyaviy nazoratni o'z vaqtida amalga oshirish loyihalar ijrosini samarali tashkil etishga xizmat qiladi;
- loyihalarni yuqorida keltirilgan beshta bosqichda amalga oshirish loyihalar samaradorligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Qizi M. G. M., Muhitdinova M. INVESTITION LOYIHALARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH YO'LLARI //Central Asian Journal of Education and Innovation. – 2024. – T. 3. – №. 6-1. – S. 185-190.
2. Axmedova Y. S. Investitsiya loyihalari samaradorligini baholashning mazmuni va mohiyati //Educational Research in Universal Sciences. – 2024. – T. 3. – №. 2. – S. 521-524.
3. Kurbonov J. SOLIQLARNI REJALASHTIRISH INVESTITION JOZIBADORLIK OMILI SIFATIDA (Tax Planning as An Investment Attractive Factor). – 2024.